

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM) (joriy narxlarda, mlrd so'm)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 213,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 106,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 107,1 % ni tashkil qildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 9,7 % ga yetdi.

***Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi




**2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot - jami	28 230,3	32 213,9	106,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 062,8	31 283,3	106,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 167,5	930,6	107,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 062,8	31 283,3	106,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 089,1	3 548,8	103,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	14 785,6	16 931,3	106,6
sanoat	12 605,2	14 188,6	104,3
qurilish	2 180,4	2 742,7	120,1
Xizmatlar	9 188,1	10 803,2	107,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 781,7	3 326,9	111,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 589,8	1 971,7	110,2
boshqa xizmat tarmoqlari	4 816,6	5 504,6	104,1

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 341,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nisbatan 4,7 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so‘mda)



**2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o‘shish sur‘atlari**
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Ma‘lumot uchun: Respublika bo‘yicha 2025- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi 8 867,3 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga o‘sd. 2024- yilning yanvar-mart oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 7 508,5 ming so‘mni va 4,2 % ni tashkil qilgan.


Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,9	97,1
mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	2,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11,4	11,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	54,7	54,2
sanoat	46,6	45,4
qurilish	8,1	8,8
xizmatlar	33,9	34,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,3	10,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	6,3
boshqa xizmat tarmoqlari	17,7	17,6

2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 11,3 % ni, sanoat tarmogʻi 45,4 % ni, qurilish 8,8 % ni va xizmatlar sohasi 34,5 % ni tashkil qildi.


**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlariboʻyicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)


YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,9 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,6 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.)ni tashkil etdi.




2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 11,3 %), sanoatda – 104,3 % (45,4 %), qurilishda – 120,1 % (8,8 %), xizmatlar sohasida – 107,4 % ni (34,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,6 % (10,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,2 % (6,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,1 % dan (17,6 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 107,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,8 % va xizmatlar sohasida – 109,5 % qayd etildi.


**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik hajmi 15 679,1 mlrd so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 13 433,1 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 50,1 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 49,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘shishi kichik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi
va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste‘mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste‘mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya‘ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya‘ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) doimiy narxlarda, ya‘ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.